



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Surxondaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **21,2** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **5,5** mingtaga kamaygan yoki **20,5 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,8** birlikni tashkil qildi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-sentabrida **2653** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **19,2 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

2019-2023- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.

2023- y.

26 648	Surxondaryo viloyati	21 197
5 050	Termiz sh	3 806
1 046	Angor	1 046
566	Bandixon	536
1 206	Boysun	947
3 108	Denov	2 516
2 185	Jarqo'rg'on	1 685
1 261	Qiziriq	932
1 758	Qumqo'rg'on	1 353
914	Oltinsoy	819
1 233	Muzrabot	944
1 312	Sariosiyo	1 216
1 851	Termiz	1 315
1 358	Uzun	1 166
1 758	Sherobod	1 510
1 787	Sho'rchi	1 406

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **21 197** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 653** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Termiz shahrida **3 806** tani yoki jamiga nisbatan **20,0 %** ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

26 648

2022- y.

21 197

2023- y.

24 572

2021- y.

14 763

20 750


2020- y.

2019- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

Termiz	19,5
Termiz sh.	19,3
Boysun	11,2
Bandixon	10,7
Sherobod	10,3
Oltinsoy	9,1
Angor	9,0
Uzun	9,0
Muzrabot	8,8
Jarqo'rg'on	8,7
Qiziriq	8,6
Sho'rchi	8,2
Denov	8,1
Sariosiyo	8,1
Qumqo'rg'on	7,7



Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1 oktabr holatiga, birlikda



2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,8** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **2,6** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida **19,5** birlik, Termiz shahrida **19,3** birlik, Boysun tumanida **11,2** birlik, Bandixon tumanida **10,7** birlik va Sherobod tumanida **10,3** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Termiz tumani
- 19,5 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Angor tumani, Uzun tumani
- 9,0 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Qumqo'rg'on tumani
- 7,7 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida **19,5** birlik, Termiz shahrida **19,3** birlik, Boysun tumanida **11,2** birlik, Bandixon tumanida **10,7** birlik, Sherobod tumanida **10,3** birlik, Oltinsoy tumanida **9,1** birlik, Angor tumanida **9,0** birlik, Uzun tumanida **9,0** birlik va Muzrabot tumanida **8,8** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023- yil 1- sentabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Sherobod tumani

10,3

Boysun tumani

11,2

Termiz tumani

19,3

Bandixon tumani

19,5

Termiz shahri

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

177	Angor	126
134	Bandixon	72
192	Boysun	91
379	Denov	267
261	Jarqo‘rg‘on	205
169	Muzrabot	106
145	Oltinsoy	161
129	Qiziriq	173
215	Qumqo‘rg‘on	120
160	Sariosiyo	130
269	Sherobod	259
208	Sho‘rchi	167
155	Termiz	113
541	Termiz sh.	554
150	Uzun	109

2023- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Termiz shahri - **20,9** %, Denov tumani - **10,1** %, Sherobod tumani - **9,8** %, Jarqo‘rg‘on tumani - **7,7** %, Qiziriq tumani - **6,5** %, Sho‘rchi tumani - **6,3** % va Oltinsoy tumani - **6,1** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1 155** ta, sanoatda **576** ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **285** ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Termiz shahrida **554** ta, Denov tumanida **267** ta va Sherobod tumanida **259** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **20 136** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **6 801** (yoki **33,8 %**) ta, sanoat sohasida – **4 344** (yoki **21,6 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **4 154** (yoki **20,6 %**) ta, xizmatlar sohasida – **3 266** (yoki **16,2 %**) ta va qurilish sohasida – **1 571** (yoki **7,8 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




■ 2022- y. ■ 2023- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2023-yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **76,7** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **0,3** punktga ko‘paygan. Ko‘payishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘silgan qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2023-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi tashishda **97,7** % ni, qishloq xo‘jaligida **96,7** % ni, chakana savdoda **96,9** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **95,3** % ni, yuk aylanmasida **95,3** % ni va qurlilishda **90,7** % tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mld. so‘m

Termiz sh.	500,5
Sho‘rchi	332,3
Denov	271,3
Sherobod	267,9
Muzrabot	224,2
Qumqo‘rg‘on	166,6
Bandixon	165,9
Termiz	151,9
Jarqo‘rg‘on	151,1
Uzun	127,1
Angor	119,7
Sariosiyo	114,6
Boysun	108,0
Oltinsoy	104,8
Qiziriq	47,4

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 853,3** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (**500,5** mld. so‘m), Sho‘rchi (**332,3** mld. so‘m), Denov (**271,3** mld. so‘m), Sherobod (**267,9** mld. so‘m) va Muzrabot (**224,2** mld. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Qiziriq tumanida (**47,4** mld. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

*2023- yil yanvar-sentabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **48,1 %** ni tashkil etdi.*



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Bandixon	100,0
Boysun	96,0
Angor	90,2
Muzrabot	89,2
Oltinsoy	84,3
Sho‘rchi	58,0
Uzun	52,8
Termiz	51,3
Termiz sh.	50,1
Sherobod	42,5
Denov	42,1
Sariosiyo	37,9
Qumqo‘rg‘on	33,8
Qiziriq	24,2
Jarqo‘rg‘on	19,7

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (**100,0 %**), Boysun tumani (**96,0 %**), Angor tumani (**90,2 %**), Muzrabot tumani (**89,2 %**), Oltinsoy tumani (**84,3 %**), Sho‘rchi tumani (**58,0 %**), Uzun tumani (**52,8 %**), Termiz tumani (**51,3 %**), Termiz shahri (**50,1 %**) va Sherobod tumani (**42,5 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Termiz sh.	1359,9	86,0
Denov	549,4	100,0
Boysun	348,4	100,0
Sariosiyo	338,5	60,3
Jarqo'rg'on	337,1	93,6
Termiz	294,3	100,0
Sherobod	257,6	100,0
Angor	233,5	100,0
Muzrabot	201,5	100,0
Qiziriq	182,8	99,5
Qumqo'rg'on	173,9	95,0
Sho'rchi	143,1	100,0
Oltinsoy	115,4	100,0
Uzun	114,7	100,0
Bandixon	98,2	93,1


↑ hajmi, mld. so'mda
↑ ulushi, % da

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 748,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiyligi hajmining **90,7** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (**1 359,9** mld. so'm), Denov (**549,4** mld. so'm), Sariosiyo (**338,5** mld. so'm), Jarqo'rg'on (**337,1** mld. so'm), Termiz (**294,3** mld. so'm), Sherobod (**257,6** mld. so'm) va Qiziriq (**182,8** mld. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **5 304,1** milliard so‘nni yoki jami investitsiya hajmining **53,9 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **118,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Sherobod (**908,7** mlrd. so‘m), Denov (**678,8** mlrd. so‘m), Termiz shahri (**546,4** mlrd. so‘m), Boysun (**474,1** mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**386,2** mlrd. so‘m), Angor (**311,2** mlrd. so‘m), Sariosiyo (**295,9** mlrd. so‘m) va Muzrabot (**288,7** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **23 444,9** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **96,7** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **105,5** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Denov (**3 918,7** mlrd. so‘m), Qumqo‘rg‘on (**2 390,1** mlrd. so‘m), Sherobod (**2 271,0** mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**2 134,2** mlrd. so‘m), Muzrabot (**1 761,1** mlrd. so‘m) va Sho‘rchi (**1 627,0** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Termiz sh.	67,7	91,9
Bandixon	807,5	99,9
Qiziriq	969,9	87,3
Boysun	1083,2	98,3
Termiz	1143,7	92,4
Oltinsoy	1172,4	99,8
Angor	1187,7	83,3
Uzun	1346,9	99,2
Sariosiyo	1563,8	98,5
Sho‘rchi	1627,0	99,9
Muzrabot	1761,1	95,8
Jarqo‘rg‘on	2134,2	98,6
Sherobod	2271,0	97,6
Qumqo‘rg‘on	2390,1	98,7
Denov	3918,7	98,3

hajmi, mlrd. so‘mda ulushi, % da

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **12 841,3** mld. soʻnni yoki umumiyl chakana savdo tovar aylanmasining **96,9 %** ini tashkil etib, oʼsish surʼati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **105,1 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Bandixon	197,0	98,9
Termiz	239,5	97,6
Sariosiyo	500,2	98,8
Oltinsoy	529,3	98,9
Muzrabot	532,4	99,1
Qumqoʼrgʼon	563,8	99,0
Boysun	566,8	99,4
Qiziriq	581,7	99,4
Uzun	594,5	98,9
Angor	648,7	99,3
Jarqoʼrgʼon	704,3	97,0
Sherobod	812,2	96,9
Shoʼrchi	1 394,5	98,4
Termiz sh.	2 208,4	95,4
Denov	2 768,0	93,9


hajmi, mlrd. soʻmda —————↑
ulushi, % da —————↑

2018 va 2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining oʼzgarishi, mlrd. soʻm




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mldr. so‘mda



2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 006,5** mldr. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **63,6 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **107,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Termiz shahri (**1 393,7** mldr. so‘m), Denov (**863,2** mldr. so‘m), Sariosiyo (**442,9** mldr. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**442,8** mldr. so‘m), Sherobod (**437,2** mldr. so‘m), Sho‘rchi (**423,2** mldr. so‘m) va Qumqo‘rg‘on (**419,4** mldr. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari
(yanvar-sentabr oylarida)

3 708,4	Savdo xizmatlari	52,9
1 502,3	Transport xizmatlari	21,4
329,2	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,7
322,7	Shaxsiy xizmatlar	4,6
271,9	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	3,9
240,4	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3,4
195,0	Ijara xizmatlari	2,8
150,9	Boshqa xizmatlar	2,2
96,5	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4
78,5	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,1
65,0	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	0,9
41,1	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,6
4,6	Moliyaviy xizmatlar	0,1

Hajmi, mlrd. so‘mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida - **52,9** % (**3 708,4** mlrd. so‘m), transport xizmatlarida - **21,4** % (**1502,3** mlrd. so‘m), yashash va ovqatlanish xizmatlarida - **4,7** % (**329,2** mlrd. so‘m) va shaxsiy xizmatlarda - **4,6** % (**322,7** mlrd. so‘m) ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda - **0,1** % (**4,6** mlrd so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Sherobod	12896,5	90,2
Denov	12655,0	67,4
Sariosiyo	10002,5	100,0
Qiziriq	9679,9	100,0
Angor	8466,5	89,8
Termiz	7677,3	49,9
Jarqo‘rg‘on	7466,8	52,0
Termiz sh.	6809,7	77,1
Muzrabot	6749,2	100,0
Qumqo‘rg‘on	6185,1	83,4
Boysun	5137,9	100,0
Oltinsoy	4443,6	97,8
Uzun	4186,0	42,3
Bandixon	4081,4	100,0
Sho‘rchi	2468,4	33,8

hajmi, ming. AQSH dollar

ulushi, % da


2023- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **109 809,9** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **74,7** % ini tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Bandixon tumanida - **100,0** %, Boysun tumanida - **100,0** %, Sariosiyo tumanida - **100,0** %, Muzrabot tumanida - **100,0** %, Qiziriq tumanida - **100,0** %, Oltinsoy tumanida - **97,8** %, Sherobod tumanida - **90,2** %, Angor tumanida - **89,8** % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Sho‘rchi tumanida - **33,8** %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **79 748,7** ming AQSH dollarini yoki jami importning **91,5 %** ni tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida - **100,0 %**, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0 %**, Bandixon tumanida - **100,0 %**, Muzrabot tumanida - **100,0 %**, Boysun tumanida - **100,0 %**, Uzun tumanida - **99,8 %** va Sho'rchi tumanida - **99,8 %** ni tashkil etdi.


Qiziriq	100,0
Qumqo'rg'on	100,0
Bandixon	100,0
Muzrabot	100,0
Boysun	100,0
Uzun	99,8
Sho'rchi	99,8
Termiz sh.	97,2
Denov	97,0
Angor	96,8
Oltinsoy	96,2
Termiz	83,3
Jarqo'rg'on	77,5
Sariosiyo	48,1
Sherobod	37,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




93,2 %

**Yuk
tashishda**




95,3 %

**Yuk
aylanmasida**



97,7 %

**Yo'lovchi
tashishda**



98,5 %

**Yo'lovchi
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,2** % ni tashkil etdi. 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,4** % ni tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,3** % ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,8** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,7** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,9** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,5** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,9** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil III chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da 1 153 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 399 (34,6 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 643 (55,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 111 (9,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda - 40,7 % (469 ta), xizmatlar sohasida - 26,5 % (305 ta), sanoatda - 11,9 % (137 ta), qurilishda - 13,3 % (153 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - 7,7 % (89 ta)ni tashkil etdi.

2023- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1580,5	Termiz shahar	26,7
137,6	Angor	2,3
21,7	Bandixon	0,4
93,1	Boysun	1,6
2590,0	Denov	43,8
218,4	Jarqo‘rg‘on	3,7
89,8	Qiziriq	1,5
126,5	Qumqo‘rg‘on	2,1
39,2	Oltinsoy	0,7
49,7	Muzrabot	0,8
116,6	Sariosiyo	2,0
246,9	Termiz	4,2
85,1	Uzun	1,4
165,8	Sherobod	2,8
350,2	Sho‘rchi	5,9


Hajmi, mlrd. so‘mda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (**228** ta), Denov (**149** ta), Jarqo‘rg‘on (**89** ta), Sho‘rchi (**83** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning III choragida **326** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragiga kelib esa **399** taga yetgan yoki 2018- yilning III choragiga nisbatan **73** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **297** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabrida **643** ta yoki **346** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **58** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **111** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **53** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



yaxshilanish

o'zgarishsiz

yomonlashish


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilanish deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning **III** choragida **429** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning **III** choragiga kelib esa **490** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **61** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilning **III** choragida **246** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning **III** choragida **509** ta yoki **263** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018- yilning **III** choragida **39** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning **III** choragiga kelib, bu ko'rsatkich **72** tani tashkil etib, **33** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **47,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **34,6** % ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **13,3** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018- yilda **43,6** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **55,8** % yoki **12,2** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **8,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **9,6** % ga yetgan yoki **1,1** % ga ko'paygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2018-2023- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning III choragida **60,1** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilga kelib esa **45,8** % ga yetgan yoki 2018- yilning **III** choragiga nisbatan **14,3** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2018- yilning III choragida **34,5** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning **III** choragida **47,5** % yoki **13,0** % birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2018- yilning III choragida **5,4** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning **III** choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **6,7** % yoki **1,3** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda - **41,8** % ni, xizmatlar sohasida - **38,7** % ni va savdoda - **35,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **68,2** % ni, sanoatda - **62,8** % ni va savdoda - **54,8** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **17,0** % ni, savdoda - **10,2** % ni va qurilishda - **9,8** % ni, tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Jami – 57,9



Jami – 38,0



Jami – 4,1



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda - **64,1** % ni, savdoda - **57,8** % ni va sanoatda - **56,9** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida - **41,0** % ni, sanoatda - **40,9** % va savdoda - **38,0** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **8,0** % ni, savdoda - **4,2** % ni, qurilishda - **3,2** % ni va xizmatlar sohasida - **2,9** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	38,3	47,2	14,5
Band bo'lganlar soni	30,5	58,9	10,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	40,8	47,7	11,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	38,0	50,3	11,7
Raqobat muhiti	44,9	44,8	10,3
	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	56,0	39,5	4,5
Band bo'lganlar soni	45,8	50,6	3,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	52,6	43,7	3,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	51,0	45,2	3,8
Raqobat muhiti	54,2	42,5	3,3

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

** Faqat raqobat muhitiga tegishli*

Ishbilarmonalik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo‘limi